

SOLIQ NAZORATINI OLIB BORISHDA TADBIRKORLARNING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI

*Idirisov Alisher Otajonovich,
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo
solix inspeksiyasi katta inspektori*

Kalit so'zlar: Solix ma'muriyatchiligi, solix nazorati, solix to'lovchilarning huquqlari, solix to'lovchilarning haqligi prezumpsiyasi, solix organlarining majburiyatlari.

Ключевые слова: Налоговая администрация, налоговый контроль, права налогоплательщиков, принцип презумпции правоты налогоплательщика, обязанности налоговых органов.

Keywords: Tax administration, tax control, rights of Taxpayers, principle of the Presumption of the Taxpayer's Correctness, obligations of Tax Authorities.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, ularning faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, yurtimizning investitsiyaviy iqlimini va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar izchil tarzda olib borilmoqda. Aytishimiz mumkinki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga solishga oid amaldagi qonun-hujjatlarida barcha tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi qonunchilikda mustahkamlangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunga muvofiq yangi tahrirda tasdiqlangan bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri tadbirkorchilik faoliyati bilan shug'illanuvchi subyektlarning qonuniy manfaatlarini hamda huquqlarini himoyalashdan iboratdir. Ushbu qonunda tadbirkorchilik faoliyati bilan shug'illanuvchi subyektlar huquqlarining kafolati hamda ular huquqlarini himoyalash har tomonlama mustahkamlab qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik subyektlarining davlat idoralari, jumladan nazorat qiluvchi hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, bundan tashqari bank muassasalari bilan bo'ladigan munosabatlar jarayonida tadbirkorlarning huquqlari ustunligi prinsipiga amal qiladi, unga ko'ra qonunchilikda tadbirkorlikni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq

hollarda yuzaga keluvchi barcha bartaraf qilib bo'lmaydigan noaniqliklar hamda ziddiyatlar tadbirkor foydasiga (davlat foydasiga emas) talqin qilinishi nazarda tutilgan¹.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ham soliq solish prinsiplaridan biri sifatida "Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi" ko'zda tutilgan bo'lib, unga muvofiq soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi uchraydigan barcha turdagi bartaraf qilib bo'lmaydigan noaniqliklar hamda qarama-qarshiliklar tadbirkorning foydasi uchun talqin qilinadi. Ya'ni bir so'z bilan aytganda qonunchilikdagi kamchiliklar yuzasidan tadbirkorlik subyekti javobgar bo'lmasligi lozimdir. Mazkur tartib-qoidalar yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini davlatimiz tomonidan himoya qilinishining huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yilganligini tasdiqlaydi, desak mubolag'a bo'lmas kerak².

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning huquqlari belgilagan bo'lib, unda ko'zda tutilishicha soliq to'lovchilar mazkur kodeksida hamda soliqlar haqidagi boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa turdagi huquqlarga ega bo'lishlari mumkin. Soliq to'lovchilarning belgilangan huquqlari orasida soliq nazorati va soliq tekshiruvlari jarayonida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari himoya qilinishiga va kafolatlanishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Soliq kodeksi bilan belgilangan qoidalarga ko'ra, soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari soliq idoralari hamda boshqa vakolatga ega bo'lgan tashkilotlar mas'ul xodimlarining tegishli majburiyatlari asosida ta'minlanadi hamda soliq to'lovchilarning qonuniy huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarini bajarmaganlik yohud lozim bo'lgan darajada bajarmaganlik esa O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan javobgarliklarga sabab bo'ladi³.

Tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini hamda huquqlarini himoyalash kafolatlarini kuchaytirish, ularning faoliyatiga davlat organlarining asossiz aralashuvini oldini olish, xususiy mulk daxlsizligining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi prinsipini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatimizda Prezident huzurida

¹ O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-sonli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni mazmun-mohiyati asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

² O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-136-sonli qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining 11-moddasi va 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli qonuni bilan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 13-moddasi mazmun-mohiyati asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli qonuni bilan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 21-moddasi mazmun-mohiyati asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini va huquqlarini himoyalash bo'yicha vakili instituti joriy qilindi. Tadbirkorlarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoyalash bo'yicha vakilning faoliyat yo'nalishlari hamda asosiy vazifalari sifatida tadbirkorchilikni rivojlantirish, tadbirkorlarning huquq va manfaatini himoyalash sohasidagi davlat olib borayotgan siyosatini shakllantirish hamda uni amalga oshirishda faol ishtirok etish, davlat idoralari, jumladan, nazorat idoralari va huquqni muhofaza etuvchi organlar tomonidan tadbirkorlarning qonuniy manfaatlariga va huquqlariga rioya qilinishi bo'yicha nazoratni amalga oshirib borish, tadbirkorlarning faoliyati tekshirilayotganida esa ularni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabilar ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonun 16-moddasida tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan Soliq kodeksi 135-moddasi ham soliq to'lovchilar haqida qonun talablarini buzib olingan hujjatlar yohud boshqa axborotlar mazkur shaxslarni soliq sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik yuzasidan turli javobgarliklarga tortilishiga asos sifatida xizmat qilishi qonunan mumkin emasligini ko'zda tutadi. Demak, xulosa qilishimiz mumkinki Soliq kodeksida bu kabi qoidalarning qat'iy belgilab qo'yilishi soliq nazorati jarayonida barcha tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlari himoya qilinishining kafolatlanganligidan darak beradi desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomda soliq to'lovchilarning qonuniy huquq va manfaatlari nazarda tutilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ushbu nizomning 3-bob, 17-bandida soliq tekshiruvlarini o'tkazish jarayonlarida soliq to'lovchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bir qator huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Jumladan, soliq idorasi xodimining tekshirish bilan bog'liq masalalarga aloqadorligi bo'lmagan talabini bajarmaslik, tekshirishlar o'tkazish jarayonida o'z vakili bilan yoki shaxsan ishtirok etish va boshqalar shu kabi bir qator huquqlarini ta'kidlashimiz o'rindir.

2020-yil 1-yanvardan Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinganligi munosabati bilan soliq to'lovchilarning huquqlariga doir o'zgarishlar tahlili⁴

Oldingi Soliq kodeksida (31-modda)	Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida (21-modda)
---	--

⁴ Jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-136-sonli qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining 31-moddasi va 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli qonuni bilan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 21-moddasi mazmun-mohiyati asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq idoralaridan soliqlar, majburiy to'lovlar hamda soliqlar doir qonunchilikdagi o'zgarishlar to'g'risida axborotlarni olishlari mumkin edi	Barcha turdagi olinadigan axborotlar bepul bo'lishi kerak. Mazkur huquq quyidagilarni olish imkoniyati bilan to'ldirildi: - soliq hamda yig'implarni hisoblash va to'lash tartiblari to'g'risidagi axborot; - soliq hisoboti hamda arizalar shakllari; - soliq hisoboti hamda arizalarni to'ldirish tartibi to'g'risida tushuntirishlar
Soliq to'lovchi tekshiruv natijalari bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok eta olmasdi	Endi soliq to'lovchi tekshiruvlar materiallari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi mumkin. Demak, o'z pozitsiyasini ifoda etishi va qo'shimcha hujjatlar taqdim etishi mumkin
Soliq to'lovchi o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'zining vakili orqali ifoda etishi mumkin edi	Soliq to'lovchining vakili sifatida soliq maslahatchilari xizmatidan foydalanish huquqi qo'shildi

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga solishga oid amaldagi qonun-hujjatlarida barcha tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi, shuningdek tadbirkorlar faoliyati tekshirilayotganda ularni huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari qonun-hujjatlari bilan kafolatlangan.

Fikrimizcha, soliq nazorati tadbirlari amalga oshirilayotganda Soliq kodeksi hamda boshqa qonunchilik normalarida belgilab qo'yilgan qoidalarni buzgan tarzida tadbirkorlik subyekti haqidagi axborotni to'plash, uni saqlash, bundan foydalanish hamda uni tarqatishga, shu bilan birga soliq sirini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan qoidalar amaldagi Soliq kodeksining soliq nazoratini tartibga solib turuvchi tegishli moddalarida aks etishi lozim deb hisoblaymiz. Bu masala soliq tekshiruvlari jarayonida tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi qonunchilik bilan yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishi bilan o'z ahamiyatiga egadir.